

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMPATIYA RIVOJIDA IJTIMOIY-ROLLI O‘YINLARNING PSIXOLOGIK ROLI

**Alimova Dilnoza Djurabayevna**

*Toshkent shahar Yunusobod tumani  
Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi  
tasarrufidagi 43-DMTT direktori*

**Annotatsiya:** *Empatiya maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishida muhim psixologik omil hisoblanadi. Ushbu yosh davrida bolalarda boshqalarning emotsional holatini anglash, his-tuyg‘ulariga hamdardlik bildirish va ijtimoiy vaziyatlarga mos munosabat shakllanadi. Maktabgacha yosh empatik reaksiyalarning rivoji uchun sezgir davr bo‘lib, aynan shu bosqichda o‘yin faoliyati yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya tuyg‘usini rivojlantirishda ijtimoiy-rolli o‘yinlarning psixologik roli nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy-rolli o‘yinlar orqali bolalarda emotsional anglash, ijtimoiy idrok va prosotsial xulq-atvorning shakllanish mexanizmlari yoritib beriladi. Maqola natijalari maktabgacha ta‘lim amaliyotida empatiyani rivojlantirishga qaratilgan psixologik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *empatiya, maktabgacha yosh, ijtimoiy-rolli o‘yinlar, emotsional rivojlanish, prosotsial xulq-atvor, ijtimoiy idrok.*

**Аннотация:** *Эмпатия является важным психологическим компонентом социально-эмоционального развития детей дошкольного возраста. В данный период у детей формируется способность понимать эмоциональные состояния других людей, проявлять сочувствие и адекватно реагировать на социальные ситуации. Дошкольный возраст рассматривается как чувствительный период для развития эмпатических реакций, поскольку игровая деятельность выступает ведущим видом активности. В статье рассматривается психологическая роль социально-ролевых игр в развитии эмпатии у детей дошкольного возраста. На основе теоретического анализа и практических наблюдений раскрываются механизмы формирования эмоционального понимания, социального восприятия и просоциального поведения в процессе ролевых игр. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования психологической работы в дошкольных образовательных организациях.*

**Ключевые слова:** *эмпатия, дошкольный возраст, социально-ролевые игры, эмоциональное развитие, просоциальное поведение, социальное восприятие.*

**Abstract:** *Empathy is a key psychological component of social and emotional development in preschool children. During this period, children develop the ability to understand others' emotional states, express compassion, and respond appropriately to social situations. Preschool age is considered a sensitive period for the development of empathic responses, as play activity becomes the leading form of learning and interaction. This article examines the psychological role of social role-playing games in fostering empathy among preschool children. Based on theoretical analysis and practical observations, the study*

*explores the mechanisms through which role-playing activities contribute to emotional awareness, social perception, and prosocial behavior. The findings of the study can be applied to enhance psychological and educational practices in preschool settings.*

**Keywords:** *empathy, preschool age, social role-playing games, emotional development, prosocial behavior, social perception.*

## Kirish

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta’lim yondashuvlarida bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish, ayniqsa empatiya tuyg‘usini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. Empatiya shaxslararo munosabatlarning samaradorligini ta’minlovchi, ijtimoiy moslashuv va emotsional barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy psixologik mexanizm hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davrida bolalar ijtimoiy muhit bilan faol o‘zaro munosabatga kirishadi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot jarayonida turli emotsional holatlarni boshdan kechiradi. Aynan shu davrda boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularga munosabat bildirish va ijtimoiy vaziyatlarni tushunish ko‘nikmalari shakllanadi. Psixologik tadqiqotlar maktabgacha yoshni empatik qobiliyatlarning rivoji uchun sezgir davr sifatida ta’riflaydi.

Bolalar rivojlanishida o‘yin faoliyati yetakchi o‘rin egallaydi. O‘yin orqali bola atrof-muhitni biladi, ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi va shaxsiy emotsional tajribasini boyitadi. Ijtimoiy-rolli o‘yinlar bolalarga turli ijtimoiy rollarni bajarish, real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda boshqalarning nuqtai nazarini tushunish imkonini beradi. Ushbu jarayonda bola o‘z emotsiyalarini ifodalash, boshqalarning holatini his etish va prosotsial xatti-harakatlarni namoyon etishga o‘rganadi.

Shu sababli ijtimoiy-rolli o‘yinlarni maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya rivojini ta’minlovchi samarali psixologik vosita sifatida o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya tuyg‘usini shakllantirishda ijtimoiy-rolli o‘yinlarning psixologik rolini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya tushunchasining psixologik mazmuni

Empatiya psixologik jihatdan shaxsning boshqa insonning emotsional holatini idrok etish, ushbu holatni ichki kechinma sifatida qabul qilish va unga mos xulqiy munosabat bildirish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Zamonaviy psixologik yondashuvlarda empatiya murakkab ko‘p komponentli tuzilma bo‘lib, u bolaning emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Maktabgacha yosh davrida empatiya hali barqaror shaxsiy sifat sifatida to‘liq shakllanmagan bo‘lib, u rivojlanish jarayonida bo‘lgan psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur yosh bosqichi empatik qobiliyatlarni shakllantirish uchun sezgir davr sifatida qaraladi [1]. Ilmiy adabiyotlarda empatiyaning tuzilmasi odatda quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali izohlanadi: (1) emotsional komponent — boshqalarning his-tuyg‘ularini sezish va ularga hamdardlik bildirish; (2) kognitiv komponent — boshqa shaxsning holatini tushunish va

vaziyatni uning nuqtai nazaridan baholash; (3) xulqiy komponent — empatik tushunishga mos ravishda prosotsial xatti-harakatlarni namoyon etish. Ushbu komponentlar maktabgacha yoshda bir tekis rivojlanmaydi, balki bolaning ijtimoiy tajribasi va muloqot muhiti ta’sirida bosqichma-bosqich shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, dastlab emotsional empatiya ustunlik qiladi, keyinchalik esa kognitiv tushunish va xulqiy javoblar bilan boyib boradi [2]. Maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya rivoji bolaning o’z emotsiyalarini anglash qobiliyati bilan bevosita bog’liq bo’lib, emotsional o’zini anglash empatik idrokning asosiy sharti hisoblanadi. Ushbu jarayonni sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin: emotsiyani sezish → emotsiyani nomlash → boshqada mavjud emotsiyani tanish → unga nisbatan ichki munosabat bildirish → mos xulqiy javobni namoyon etish. Mazkur ketma-ketlik empatiya rivojining psixologik mexanizmini ochib beradi va uning tasodifiy emas, balki ijtimoiy tajriba asosida shakllanadigan jarayon ekanligini ko’rsatadi. Maktabgacha yosh davrida empatiyaning yetarli darajada rivojlanishi bolalarda ijtimoiy moslashuv, tengdoshlar bilan ijobiy munosabatlar, nizolarni tinch yo’l bilan hal qilish va emotsional barqarorlikni ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo’ladi [3]. Shu bois empatiyani maktabgacha yoshdan boshlab rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki muhim psixologik muammo sifatida qaraladi va uni shakllantirish uchun samarali vositalarni aniqlash ilmiy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy-rolli o’yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalar psixik rivojlanishidagi psixologik o’rni

Maktabgacha yosh davrida o’yin faoliyati bolaning psixik rivojlanishini belgilovchi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi va aynan shu faoliyat orqali bola ijtimoiy tajribani o’zlashtiradi, atrof-muhitdagi munosabatlar mazmunini angelaydi hamda shaxsiy emotsional tajribasini boyitadi. Psixologik nuqtai nazardan ijtimoiy-rolli o’yinlar bolaning real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni ramziy shaklda aks ettirishiga asoslanadi va bu jarayon bolaning emotsional, kognitiv hamda xulqiy rivojlanishini bir butun tizim sifatida faollashtiradi. Ijtimoiy-rolli o’yinlarning psixologik mohiyati shundan iboratki, bola o’yin davomida nafaqat muayyan rolni bajaradi, balki ushbu rolga xos bo’lgan his-tuyg’ular, ijtimoiy kutishlar va xatti-harakat modellarini ichki jihatdan o’zlashtiradi [4]. Ushbu jarayon ijtimoiy identifikatsiya mexanizmi orqali amalga oshib, bola o’zini boshqa shaxs o’rnida tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo’ladi, bu esa empatiyaning kognitiv asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy-rolli o’yinlarning rivojlantiruvchi ta’siri quyidagi psixologik yo’nalishlar orqali izohlanadi: (1) ramziy tafakkurning rivoji — bola predmet va vaziyatlarga yangi ma’no yuklaydi; (2) ijtimoiy idrokning shakllanishi — bola boshqalarning xatti-harakat sabablarini tushunishga harakat qiladi; (3) emotsional regulyatsiyaning rivoji — bola o’yin jarayonida o’z his-tuyg’ularini boshqarishni o’rganadi; (4) muloqot kompetensiyasining kengayishi — bola tengdoshlari bilan hamkorlikda harakat qilishga moslashadi. Ushbu yo’nalishlar o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, ijtimoiy-rolli o’yinlar jarayonida kompleks tarzda rivojlanadi [5]. Ijtimoiy-rolli o’yinlarning empatiya rivojiga ta’sirini sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin: ijtimoiy vaziyatni modellashtirish → rolni qabul qilish → rolga xos emotsiyalarni his etish → boshqa ishtirokchilarning holatini anglash → o’z xatti-harakatini moslashtirish. Ushbu ketma-ketlik bolaning empatik tajribasini

chuqurlashtirib, uni real hayotiy vaziyatlarga ko‘chirish imkonini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-rolli o‘yinlarda faol ishtirok etgan bolalarda emotsional sezgirlik, tengdoshlarga nisbatan hamdardlik va prosotsial xulq-atvor ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi [6]. Ayniqsa “oilaviy rollar”, “kasbiy rollar” va “ijtimoiy xizmatlar”ga oid o‘yinlar bolalarda boshqalarning ehtiyojlari va his-tuyg‘ularini tushunishga kuchli turtki beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy-rolli o‘yinlar bolaning ichki nutqi va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantiradi, bu esa empatiyaning barqarorlashuviga olib keladi. Psixologik tadqiqotlar ijtimoiy-rolli o‘yinlarni maqsadli tashkil etish orqali empatiya rivojini ongli ravishda boshqarish mumkinligini ko‘rsatadi [7]. Demak, ijtimoiy-rolli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar psixik rivojlanishida empatiyani shakllantiruvchi yetakchi psixologik mexanizmlardan biri bo‘lib, u bolaning ijtimoiy moslashuvi va emotsional yetukligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-rolli o‘yinlar orqali empatiya rivojlanishining psixologik mexanizmlari

Ijtimoiy-rolli o‘yinlar orqali empatiya rivojlanishi murakkab, ko‘p bosqichli psixologik jarayon bo‘lib, u bolaning emotsional tajribasi, kognitiv faolligi va ijtimoiy muloqot ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq holda kechadi. Ushbu jarayonning psixologik mohiyati shundan iboratki, bola o‘yin davomida real hayotiy vaziyatlarni ramziy shaklda qayta yaratadi va bu vaziyatlar orqali boshqalarning his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari hamda xatti-harakat sabablarini tushunishga intiladi. Psixologik tadqiqotlarda empatiya rivojining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida identifikatsiya jarayoni ko‘rsatiladi, ya‘ni bola o‘zini boshqa shaxs o‘rniga qo‘yib ko‘rish orqali uning ichki holatini his etishga harakat qiladi [8]. Ijtimoiy-rolli o‘yinlar aynan ushbu mexanizmni faollashtiruvchi qulay psixologik muhitni yaratadi, chunki o‘yin sharoitida bola xato qilishdan qo‘rqmaydi va emotsiyalarni erkin ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Empatiya rivojining yana bir muhim mexanizmi sifatida emotsional rezonans jarayoni ajratib ko‘rsatiladi, bunda bola tengdoshlari yoki o‘yin ishtirokchilarining emotsional holatiga ichki javob reaksiyasini namoyon etadi. Ushbu holat o‘yin davomida tabiiy ravishda yuzaga kelib, bolalarda hamdardlik va emotsional yaqinlik tuyg‘ularini kuchaytiradi [9]. Ijtimoiy-rolli o‘yinlarda empatiya rivoji quyidagi izchil psixologik zanjir orqali amalga oshadi: ijtimoiy vaziyatni idrok etish → rolni ongli qabul qilish → rolga mos emotsiyalarni ichki kechinma sifatida boshdan kechirish → boshqa ishtirokchilarning holatini anglash → o‘z xatti-harakatini ushbu anglash asosida moslashtirish. Ushbu zanjir empatiya rivojining ichki mantiqiy mexanizmini ochib beradi va uning tasodifiy emas, balki faol ijtimoiy tajriba natijasida shakllanishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy-rolli o‘yinlar empatiyaning kognitiv mexanizmlarini ham rivojlantiradi, chunki bola vaziyatni tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunish va boshqalarning xulq-atvorini prognoz qilishga urinadi. Bu jarayon bolaning perspektivani qabul qilish qobiliyatini mustahkamlab, empatiyaning ongli shakllanishiga zamin yaratadi [10]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, empatiyaning rivoji faqat emotsional hamdardlik bilan cheklanib qolmaydi, balki prosotsial xulq-atvor orqali mustahkamlanadi. Ijtimoiy-rolli o‘yinlarda yordam berish, qo‘llab-quvvatlash, kelishuvga erishish kabi xatti-harakatlar empatiyaning amaliy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi va bolaning ijtimoiy tajribasiga singib boradi [11]. Ushbu jarayonni sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin: empatik idrok → ichki emotsional javob →

ijtimoiy ahamiyatni anglash → prosotsial xatti-harakat. Mazkur sxema empatiyaning faqat ichki kechinma emas, balki faol ijtimoiy xulq shakli ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy-rolli o‘yinlar refleksiya mexanizmini ham faollashtiradi, ya’ni bola o‘z xatti-harakatlari va boshqalarning munosabatini tahlil qilishga o‘rganadi, bu esa empatik qobiliyatlarning barqarorlashuviga olib keladi. Shu sababli ijtimoiy-rolli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya rivojining eng samarali va tabiiy psixologik mexanizmlarini birlashtiruvchi faoliyat turi sifatida ilmiy asosda e’tirof etiladi [12].

Maktabgacha ta’lim amaliyotida empatiyani rivojlantirishda ijtimoiy-rolli o‘yinlardan foydalanishning psixologik modeli va shart-sharoitlari

Maktabgacha ta’lim amaliyotida ijtimoiy-rolli o‘yinlardan empatiyani rivojlantirish maqsadida samarali foydalanish ushbu jarayonni ongli, tizimli va psixologik jihatdan asoslangan holda tashkil etishni talab etadi. Empatiya tasodifiy ravishda emas, balki maqsadli tashkil etilgan ijtimoiy tajriba asosida shakllanadigan psixologik sifat bo‘lgani sababli, ijtimoiy-rolli o‘yinlar maxsus psixologik model asosida joriy etilishi lozim. Ilmiy adabiyotlarda bunday model odatda bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tarkibiy komponentlar orqali izohlanadi: (1) motivatsion komponent — bolaning o‘yinga ichki qiziqishi va ijtimoiy ishtirokka tayyorligi; (2) mazmuniy komponent — o‘yin syujeti va rollarning emotsional jihatdan boyligi; (3) interaktiv komponent — tengdoshlar bilan faol hamkorlik va mulqotning mavjudligi; (4) refleksiv komponent — o‘yin jarayonida va undan keyin emotsional tajribani anglash va baholash imkoniyati [13]. Ushbu komponentlarning uyg‘unlashuvi ijtimoiy-rolli o‘yinlarni empatiya rivoji uchun samarali psixologik vositaga aylantiradi. Amaliyotda empatiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan rollo‘yinlarni tashkil etishda bir qator muhim psixologik shart-sharoitlarga amal qilish talab etiladi. Avvalo, o‘yin syujetlari bolalarga tanish bo‘lgan real hayotiy vaziyatlarga asoslanishi va emotsional jihatdan mazmunli bo‘lishi zarur, chunki aynan emotsional ahamiyat empatik javoblarni faollashtiruvchi asosiy omil hisoblanadi [14]. Shuningdek, rollarning taqsimlanishi bolalarning individual psixologik xususiyatlari va ijtimoiy tajribasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim, bu esa empatiya rivojida majburiylik emas, balki ichki qabul qilish mexanizmini ishga tushiradi. Ijtimoiy-rollo‘yinlar jarayonida kattalar, xususan pedagog va psixologlarning pozitsiyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular nazoratchi emas, balki yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi rolni egallashi kerak. Bu holat bolalarda psixologik xavfsizlik hissini kuchaytiradi va emotsional ochiqlikni ta’minlaydi [15]. Empatiyani rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-rollo‘yinlarning psixologik modeli quyidagi izchil bosqichlar orqali amalga oshiriladi: emotsional jihatdan boy vaziyatni yaratish → rollarni ongli qabul qilish → emotsional tajribani boshdan kechirish → tengdoshlarga nisbatan empatik munosabat bildirish → prosotsial xatti-harakatni mustahkamlash. Ushbu ketma-ketlik empatiyaning ichki mexanizmlarini tashqi faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi va uning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur model asosida tashkil etilgan ijtimoiy-rollo‘yinlar bolalarda emotsional sezgirlikning oshishi, nizoli vaziyatlarda hamdardlik bildirish qobiliyatining kuchayishi va ijtimoiy moslashuv darajasining yaxshilanishiga olib keladi [16]. Shu bilan birga, empatiyani rivojlantirish jarayonining samaradorligi o‘yinlarning tizimlilik darajasi bilan ham bog‘liq bo‘lib, bunday

o‘yinlar epizodik emas, balki rejalashtirilgan va izchil tarzda o‘tkazilgandagina psixologik jihatdan sezilarli natija beradi. Demak, ijtimoiy-rolli o‘yinlar maktabgacha ta’lim amaliyotida empatiyani rivojlantirishga qaratilgan kompleks psixologik modelning markaziy elementi bo‘lib, ular bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim vosita sifatida e’tirof etiladi [17].

### **Xulosa**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya rivoji shaxsning keyingi ijtimoiy, emotsional va axloqiy shakllanishi uchun muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot doirasida empatiya murakkab, ko‘p komponentli psixologik tuzilma sifatida tahlil qilinib, uning maktabgacha yosh davrida shakllanishi ijtimoiy tajriba va faoliyat turi bilan bevosita bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, empatiya rivoji tasodifiy jarayon emas, balki maxsus tashkil etilgan psixologik sharoitlar va maqsadli faoliyat orqali shakllanadigan jarayondir. Ayniqsa, ijtimoiy-rolli o‘yinlar empatiyaning emotsional, kognitiv va xulqiy komponentlarini bir vaqtda faollashtiruvchi samarali psixologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin jarayonida bola ijtimoiy rollarni qabul qilish, boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularning nuqtai nazarini tushunish va ushbu tushunishga mos prosotsial xatti-harakatlarni namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ijtimoiy-rolli o‘yinlar empatiya rivojining asosiy mexanizmlari bo‘lgan identifikatsiya, emotsional rezonans, perspektivani qabul qilish va refleksiya jarayonlarini tabiiy tarzda faollashtiradi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan psixologik model shuni ko‘rsatadiki, empatiyani rivojlantirishda o‘yin mazmunining emotsional boyligi, ijtimoiy o‘zaro ta’sirning mavjudligi va kattalarning qo‘llab-quvvatlovchi pozitsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu asosda aytish mumkinki, ijtimoiy-rolli o‘yinlar maktabgacha ta’lim tizimida empatiya rivojini ta’minlovchi yetakchi psixologik mexanizmlardan biri bo‘lib, ular bolalarning ijtimoiy moslashuvi va emotsional yetukligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

### **AMALIY TAVSIYALAR**

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarda empatiya rivojini ta’minlash maqsadida ijtimoiy-rolli o‘yinlardan foydalanish jarayonini tizimli va psixologik jihatdan asoslangan holda tashkil etish zarur. Avvalo, empatiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlar bolalar uchun emotsional jihatdan ahamiyatli bo‘lgan real hayotiy vaziyatlarga asoslanishi lozim. Bunda “oila”, “kasb egalari”, “yordam ko‘rsatish”, “ijtimoiy xizmatlar” kabi syujetlardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘yin jarayonida rollar bolalarning individual psixologik xususiyatlari va ijtimoiy tajribasini hisobga olgan holda taqsimlanishi, majburiylikdan qochilishi kerak. Pedagog va psixologlar o‘yin jarayonida nazoratchi emas, balki yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi pozitsiyani egallashi, bolalarning emotsional ifodalarini rag‘batlantirishi maqsadga muvofiq. Ijtimoiy-rolli o‘yinlardan empatiya rivojini ta’minlashda epizodik emas, balki rejalashtirilgan va izchil tarzda foydalanish tavsiya etiladi. O‘yinlardan so‘ng qisqa reflektiv suhbatlar tashkil etish bolalarning emotsional tajribasini anglashiga va empatik reaksiyalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya rivojini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish va sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishga imkon beradi.



### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Eisenberg N. Empathy and Prosocial Development in Childhood. Cambridge: Cambridge University Press, 2018.
2. Hoffman M.L. Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice. New York: Cambridge University Press, 2000.
3. Denham S.A. Social-Emotional Competence in Early Childhood. New York: Guilford Press, 2015.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Elkonin D.B. The Psychology of Play. Moscow: Pedagogika, 1999.
6. Rubin K.H., Bukowski W.M., Parker J.G. Peer Interactions, Relationships, and Groups. New York: Guilford Press, 2006.
7. Berk L.E. Development Through the Lifespan. Boston: Pearson Education, 2018.
8. Mead G.H. Mind, Self, and Society. Chicago: University of Chicago Press, 1934.